



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº S/5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy

kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 5- maxsus son (Iyun, 2025). - 302 bet.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abdullaev Ulug'bek Saydanovich</i>	
O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR	10-14
<i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i>	
BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO'RQLASH, QOROVULLIKNI O'TASH VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI TAHLILI	15-19
<i>Rahmankulova Adolat Xushbakovna</i>	
ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ	20-25
<i>Xusanov Xabibullo Xakimovich</i>	
O'ZBEKİSTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZİDDİYATLI VAZİYAT VA MILLİY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNİNG TARİХİY AHAMIYATI	26-30
<i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i>	
THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR	31-38
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i>	
THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT.....	39-42
<i>Nazirov Baxtiyor, Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li</i>	
IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI	43-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>İslamutdinov Vadim</i>	
СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	49-54
<i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i>	
BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHligini OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA.....	55-65
<i>Ульмас Ибрагимов</i>	
ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	66-75

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Salomova Hakima Yusupovna</i>	
ME'YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI	76-83
<i>Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i>	
YURIDIК TA'LIM VA YURIDIК KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA.....	84-90
<i>Djo'raev Anvar Muxamadiyevich</i>	
IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI	91-96

<i>Каримова Гулчехра Самадовна</i>	
ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО- ЭТИЧЕСКИХ.....	97-101
<i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i>	
ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....	102-105
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i>	
YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....	106-110
<i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i>	
O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	111-116
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i>	
TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....	117-120
<i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i>	
SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TA'SIRI.....	121-125
<i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i>	
ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASI.....	126-130
<i>Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин</i>	
ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....	131-135
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'alevna</i>	
EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....	136-139
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Muqumova Dilafruz</i>	
IRFONIY SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....	140-147
<i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i>	
TAXAYYUL OLAMI TAHILLARI.....	148-159
<i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i>	
ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS	160-163
<i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i>	
FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	164-168
<i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i>	
TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLER SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI.....	169-172
<i>Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i>	
BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA	173-177
<i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i>	
FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....	178-182

<i>Яркулова Фотима Усмановна</i>	
ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ	183-186
<i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i>	
О'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLER OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR.....	187-190
<i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i>	
THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE"	191-195
<i>Yuldasheva Kamola</i>	
SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....	196-202
<i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i>	
HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....	203-206
Kamola Hatamova	
HUJJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	207-210

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i>	
PROBATSIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI	211-216
<i>Mamatmurodov Farrux</i>	
METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE	217-222
<i>Муталипова Лола Фархадовна</i>	
СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	223-234
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ .	235-241
<i>Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna</i>	
RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	242-246

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i>	
RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI.....	247-252
<i>Namozova Dilorom Tursunovna</i>	
MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI	253-261
<i>Давыдова Руфина Артуровна</i>	
РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ	262-266
<i>Gaziev Baxromjon Valievich</i>	
OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI	267-273

<i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i>	
DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI:	
O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....	274-279
<i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i>	
TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARING	
KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI:	
AMALIYOT VA TAJRIBA.....	280-286
<i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i>	
MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA	
QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....	287-290
<i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i>	
IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI	291-295
<i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i>	
TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI	296-301

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES**Received:** 2 June 2025**Accepted:** 15 June 2025**Published:** 30 June 2025*Article / Original Paper***ETHNIC NAMES IN THE WRITTEN SOURCES OF THE MIDDLE AGES****Abdullaev Ulugbek Saydanovich**Professor of Andijan State Technical Institute,
Doctor of Historical Sciences

Abstract. This article examines ethnic names in medieval written sources and demonstrates their significance in the study of the ethnic history of the Uzbek people. In it, the author analyzed the etymology of ethnonyms characteristic of different periods of our people's history. The article also shows that many place names on the territory of Uzbekistan are based on the names of a particular tribe, which serve as an important source for studying the history of our people and other brotherly peoples.

Keywords: ethnonym, ethnic history, ethnogenesis, ethnogen, ethnic unity, ethnography, place names, Uzbek, historical source.

O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR**Abdullaev Ulugbek Saydanovich**Andijon davlat texnika instituti professori,
tarix fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'rta asr mahalliy yozma manbalardagi etnik nomlar o'rganilgan va ularni o'zbek xalqining etnik tarixini o'rganishdagi ahamiyatini ko'rsatib berilgan. Muallif unda xalqimiz tarixining turli davrlariga xos etnonimlar etimologiyasini, tahlil qilgan. Shuningdek, maqolada muallif O'zbekiston hududidagi juda ko'p joy nomlari u yoki bu urug'-qabilani nomi asosida paydo bo'lganligi ko'rsatilgan, ular xalqimiz va boshqa qardosh xalqlar tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: etnonim, etnik tarix, etnogenez, ethnogen, etnik birlik, ethnography, place names, Uzbek, historical source.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N01>**KIRISH**

Etnonim yunoncha etnos (εθνός — ethos) – "xalq" va onim—"nom" so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, "xalqni nomi" ma'nosini bildiradi.[1;6] Etnonimlarni o'rganish juda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Negaki, har bir etnonim, avvalo, axborot tashuvchi hisoblanadi. Etnos nomida qaysidir darajada ushbu xalqning etnogenezi, etnik tarixi, totemi va ijtimoiy turmushining ayrim jihatiga oid ma'lumotlar o'z aksini topgan bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Uzoq etnik jarayonlar natijasida shakllangan o'zbek xalqi o'rta asrlarda o'z tarkibiga juda ko'plab etnik komponentlarni birlashtirgan. Uning etnik tarkibida tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida kelib qo'shilgan urug'-qabilalar mavjud edi. O'zbek xalqi etnik tarkibiga qo'shilgan ushbu urug'-qabilalar o'z nomlari (etnonimlari)ga ega edilar.

MUHOKAMA

O'zbek urug'-qabilalari haqida gapirganda ushbu etnonimlar qayd qilingan bir qator yozma manbalarga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Bunday etnonimlar aks etgan yozma manbalar ichida mahalliy mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan ishlarning ahamiyati katta. Mazkur yozma manbalarning aksariyati o'rta asrlarning turli davrlarida turkiy yoki fors tillarida yozilgan. Odatda ular biror bir hukmdorning topshirig'i asosida yozilgan bo'lib, ularda ushbu hukmdor mansub bo'lgan urug'-qabilalarning yoki u hukmdorlik qilayotgan davlat hududidagi aholining etnik tarkibi aks etgan bo'ladi. Bular ichida "Majmu'a at-tavorix" ("Tarixlar majmuasi"), "Tarixi Abulkayrxoniy", "Tuxfat ul-tavorixxoniy" ("Xonning tarixdan tuhfasi"), "Nasabnomayi o'zbek" ("O'zbeklarning nasab kitobi"), "Asomiyi navadu du firkayı o'zbek" ("92 o'zbek qabilasining nomlari") kabi yozma manbalarda o'zbek urug'-qabilalarining nomlari (etnonimlari) nomma-nom sanab o'tiladi. XVI asrda yozilgan muarrix Sayfuddin Axsikatiy qalamiga mansub "Majmu' at-tavorix" ("Tarixlar majmuasi") asarida quyidagi 92 qavmnning ro'yxati keltirilgan: ming, yuz, qirq, jaloyir, saroy, qo'ng'iroq, olchin, arg'in, nayman, qipchoq, qalmoq, chaqmoq, qirg'iz, qarliq, turk, turkman, boyovut, burlayn, shamarchiq (samarchiq), kabasha, nujin, kelachi, kilamish, burat, ubrat (uyrat), qiyot, xitoy, qang'li, uryuz, junalachi, kuchi, o'tarchi, fulodchi, jiyit, juyit, chulchit, turmovit, uymovut, orlot, kerint, o'ng'ut, tang'ut, mang'it, jalovut, mamasit, markit, burkut, qiyot, quralash, o'g'lon, qari, arab, ilachi, jabrug'on, qishliq, giray, do'rmon, tobin, tama, ramadan, uyshun, badiy, xofiz, avirchi, jurot, totor, yurg'a, batosh, qavchin, tuboyi, tilav, kordori, sayhiyon, kirg'in, shirin, chimboy, chezikas, uygur, anmor, yobu, targ'il, turg'oq, tayit, ko'xat, faxir, ko'jalik, shavron (savron), darajot, kimot, shijoat, avg'on. [2;110-113] "Tarixi Abulkayrxoniy" nomli asar Shayboniy Abdullatif sulton hukmronligi (1540-1551 yillarda Samarqand xoni) davrining boshlarida Ma'sud ibn Usmon Ko'histoniy tomonidan yozilgan. Bu asarda XVI asrda Shayboniyxon bilan birga Movoraunnahrga ko'chib kelgan burqut, do'rmon, iyjon, kenagas, qiyot, qo'ng'iroq, qushchi, kurlovut, masit, tuboyi, uyshin, kosonboyli, kudag'ay, mang'it, muluj, uyg'ur, nayman, chimboy, qorliq, yonqojer, nukuz, timat, tuman-ming, o'tarchi qavmlarining nomlari keltirilgan. [3;261]"Tuxfat ul tavorixi xoniy" ("Xonning tarixdan tuhfasi") nomli asar Qo'qonlik tarixchi mulla Avaz Muhammad Attor (XIX asr) tomonidan yozilgan. Ushbu asarda 92 o'zbek qavmiga doir quyidagi etnonimlar keltirilgan: ming, qirg'iz, yuz, qirq, o'ngjot, jaloir, qo'ng'iroq, olchin, arg'in, nayman, qipchoq, chaqmoq, burlot, simirchiq, bulotjib, qatag'on, qilachi, kenagas, buyrak, uystost, qiyot, xitoy, qangli, avar, jubalachi, to'ychi, buyut, jiyit, chulchit, uymovut, orloy, kerait, ungut, tang'ut, mang'it, choljut, masit, markit, burkut, qiyot, quralas, o'qalon, qari, arab, ilochi, jaburg'on, qishliq, giray, turkman, do'rmon, tobin, tama, ramadon, mitan, uyshun, buriya, xofiz, uyurchi (avirchi), juyrat, bidoy, baosh, totor, boshqir (boshqird), sulduz, azoq, qalmoq, qoraqalpoq, sanuvodon, tuboyi, tilov, girodi, saxtiyon, 11 № 1 (1) 2024 qirg'in, shirin, o'g'lon, qurlot, bag'lon, chimboy, chilkas, uyg'ur, arnomor, yobg'u, torg'il, turg'on, kuxat, major, ko'jalik, sarvon baxrin. [4;210213] "Nasabnomayi o'zbek" ("O'zbeklarning nasab kitobi") bori-yo'g'i ikki varoq (4 bet)dan iborat bo'lib, boshqa kitoblarda, chunonchi Maxdumi A'zam Kosoniyning (1462-1542) "Tanbeh as-salotin", "Risolayi zikr", "Silsilat as-siddiqin", "Risolayi batixiya" va boshqa asarlar bilan bir muqovada jamlangan. Ushbu yozma manbada ham 92 o'zbek urug'larini nomlari sanab o'tilgan. Chunonchi, ming, yuz, qirq, o'zbek, o'n qajot, jaloir, saroy, qo'ng'iroq, olchin, arg'in, nayman, qipchoq, chaqmoq, azak, qalmoq, torliq, tudak, burloq, samarchiq, qibchoq, kelachi, qinakash, buyrak, urot, qiyot, xitoy, tunidi, uzjulachi, qoychi o'taji,

bulotchi, juyut, job, chulchut, buymovut, orlot, kerait, o'nguat, tang'ut, manbut, chilchuvit, meset, markit, burqut, kuvlas, o'qalan, qori, arab, ilochi, juburg'an, tishlik, keray, turkman, do'rmon, tobin, tama, ramadan, quytan, uyshin, badoyi, xofiz, qirg'iz, major ko'chalik, savron, baxrin, o'yris, jubrot, biday, tatar, tabash, michroq, suldus, tuboyi, tilov, kirdor, baktiya, qarqin, shirin, o'g'lon, qurlaot (qurlovut), bag'lon, chinboy, chexilkas, uyg'ur, agar, yobu, targ'il, turkan, kohat. [5;58-63] "Asomiyi navadu du firqayi o'zbek" ("92 o'zbek qabilasining nomlari") nomli asar Sulton Muhammad ibn Darvish Muhammad al-Balxiy qalamiga mansub. Bu asar ham o'sha davrda yozilgan boshqa asarlar bilan birga muqovalangan. Ushbu asarda 92 o'zbek qavmining ro'yxati quyidagi tartibda berilgan: yuz, qirq, o'ng, unkajot, jaloir, saroy, xitoy, nayman, qipchoq, chaqmoq, o'rmoq, tudaq (tug'daq), bo'ston, samarchiq, qalmoq, qorliq, qatag'on, arlot, arg'in, barlos, bo'ytay, kenagas, kelachi, buyrak, o'yrat, qiyot, qo'ng'iroq, qangli, o'z, jilovchi, jusulovchi, qoji (xoji), o'tarchi, qirlovchi, juyut (jiyut), jid, chulchut (chulchit), buyozit, uymovut, kerayit, bag'lon, lang'it, lang'ut, mang'it, merki, burkut, modi, qiyot, o'qalon, olchin, qori, g'arib, shibirg'on, qishliq, turkman, do'rmon, taban, tam, tobin, ramadan, miton, uyshun, bo'sa, xaft, qirg'iz, totor, bochqir, sulduz, kelovchi, dujor, jurat, badayi, o'g'lon, kuryuvut, chimboy, maxdi, chilkas, uyg'ur, farkon, nukus, qora tushlub, yobu, torg'il, ko'xat, shuron, shirin, tama, baxrin, kiray, sathiyon, to'g'al, qoyon. [6;262] Ko'rib chiqilgan yozma manbalarda deyarli bir xil o'zbek urug'-qabilalarning nomlari keltirilgan. Faqat ayrim tafovutlar mavjud. Yana shuni aytish o'rinlikni, ushbu etnonimlarning ayrimlari boshqa turkiy xalqlarning chunonchi, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, uyg'ur, turkman, boshqird va boshqalarning etnik tarkibida ham uchraydi.

Har qanday etnonimning o'z ma'nosi bor. Ba'zi bir etnonimlar juda qadimiylar so'zlar bo'lganligidan ma'nosini tushunish qiyin. Odatda xalqlar, millatlar, shuningdek, qabilalar, yirik urug'larning nomlari qadimiylar bo'ladi. Ta'kidlash joizki, qirg'iz, qozoq kabi millat nomlari, qo'ng'iroq, mitan, qangli, qipchoq, uyshun, qorluq, xalaj kabi urug'-qabila nomlari haqida bugungi kunda bir qancha fikr-mulohazalar bildirilgan bo'lsada, bu etnonimlarning ma'nosi hozirgacha uzil-kesil hal qilinmagan. Masalan, qirg'iz -"qirq-qiz", qozoq-"qochoq", metan "mo'ytan" (serjun), qangli-qanqli (aravali), qarluq-"qorliq" (qorda qolgan), xalaj-"qol och" (och qolgan), qalmoq-"chetda qolgan" (islom diniga kirmay qolgan) ma'noni bildiradi, deb tushunish bu hali ushbu etnoslarni nomini (etnonimini) ma'nosini to'la hal qilindi, degani emas. Etnonimlarni o'rganish juda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Negaki, har bir etnonim, avvalo, axborot tashuvchi hisoblanadi. Etnos nomida qaysidir darajada ushbu xalqning etnogenezi, etnik tarixi, totemi va ijtimoiy turmushining ayrim jihatiga oid ma'lumotlar o'z aksini topgan bo'lishi mumkin. Har bir xalq etnonimlarining o'z tarixi bo'ladi. Etnonimlar tarix taqozosini bilan vujudga keladi va etnogenetik jarayonlarda paydo bo'ladi, vaqt kelib yo'q bo'lib ketadi ham. Jonivorlar, xusan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar eng qadimiyyidir. Ular ibridoiy davrda paydo bo'lgan. Ma'lumki, ko'plab urug'larning muqaddas hayvon 12 № 1 (1) 2024 (totem-ongon)lari bo'lib, urug'doshlar o'zlarini shu hayvonlardan tarqalganmiz, deb hisoblaganlar. Masalan, jilondi (ilonli), kulon, oqbo'ra (bichilmagan oq tuya), qarg'a, echki, shular jumlasidandir.

Ko'pgina etnonimlar urug'-aymoq tamg'asi nomi bilan atalgan. O'tmishda har bir urug'ning o'z tamg'asi bo'lgan. Ya'ni chorva hayvonlariga boshqalarnikidan ajralib turish uchun tamg'a bosib qo'yanlar. Ko'pgina tamg'alar uy-ro'zg'or asboblari shaklida bo'lgan. Masalan, bolg'ali, kosovli, sirg'ali, taroqli, qirg'ili kabi urug'lar nomi yozma manba va toponimlarda ko'p uchraydi. Kishi ismi bilan bog'liq etnonimlar ham ko'p uchraydi, chunonchi bo'ronboy, jalmat,

chig'atoy shular jumlasidandir. Joy nomlaridan kelib chiqqan etnonimlar ham bor: beshqo'ton, buloqboshi, soyliq, urganjiy, qayirma, qorabuloq va boshqalar.

O'zbek etnonimlari ichida biror kasb-hunar nomi bilan yuritiladigan etnonimlar ham qayd qilinadi. Chunonchi, qirsadoq (sadoq-o'qdan), iyarchi (egarchi-egar yasovchi), sayot (sayyod-ovchi), mirishkor va boshqalar. O'zbek xalqining etnik tarixini o'rganishda etnotoponimlarning ham ahamiyati juda katta. O'tmishda biror bir etnos (urug', qabila yoki elat) nomini ma'lum bir joy nomida saqlanib qolishidan etnotoponimlar hosil bo'ladi.

XX asr boshlariga kelib O'zbekiston hududidagi ko'plab aholi yashash joylari (qishloq va ovullar) urug'-qabila va elatlar nomi bilan atalar edi. Bunday etnotoponimlar bir necha davr mobaynida etnik jamoalarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot faoliyati bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Ularning aksariyati azaliy chorvador urug'-qabilalarni o'troqlashishi yoki bu yerga ko'chib kelgan migrantlarni joylashib qolishi natijasida paydo bo'ldi. O'troqlashgan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi urug'-qabilalar hamda ko'chib kelgan elatlar aholi manzilgohlarini tashkil qilib, uni o'z etnonimlari bilan ataganlar. O'troqlashayotgan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi urug'-qabilalar hamda ko'chib kelgan elatlar o'z aholi manzillarini tashkil qilar ekanlar, odatda unga o'z xalqi nomini bergen. O'zbekiston etnotoponimlari tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan va o'rganilmoqda. Bunda olimlar ko'proq dala materiallari va statistik ma'lumotlardan foydalanadilar. 1900-yilda Zarafshon vodiysida ro'yxatga olingan 2800 dan ortiq qishloqlarning qariyb uchdan bir qismi etnotoponimlar, ya'ni urug'-aymoq nomlari bilan atalgan. [7;170-314]

Farg'ona vodiysi etnotoponimlari ham turli davr statistik materiallarida aks etgan bo'lib, ular etnograf olima S.S.Gubaeva tomonidan yaxshi o'rganib chiqilgan. S.S.Gubayeva juda ko'p qishloqlarning nomi urug'-qabilalar nomidan tashkil topganligini yozadi. Masalan, Namangan viloyatidagi 178 ta aholi punktlarining 59 tasi yoki jami qishloqlarning 33% yoki birgina Andijon shahridagi 80 ta mahallani 16 tasi etnonimlar asosida tashkil topganligi ushbu tadqiqotchi tomonidan ko'rsatib o'tilgan. [8;17-28] Nayman, Bo'ston, Mang'it, Qondi, Ko'g'ay, Elaton, Turk, Beshbola, Qo'ng'irot, Qashqarqishloq, Sulduz, Tojik, Bاليqchi, Kenagas, Saroy, Qipchoq kabilalar Farg'ona vodiysidagi eng ko'p tarqalgan etnotoponimlar hisoblanadi.

XULOSA

Xullas, etnotoponimlar mintaqamiz xalqlarini, xususan, o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Negaki, etnotoponimlarda har qanday etnos o'tmish tarixini muhim jihatlari – etnik tarkibi, joylashish xususiyati, etnik qorishuvi (assimilyatsiyalashuvi), va etnik birikish (konsolidatsiyalashuvi) namoyon bo'ladi. Ayniqsa, tarixiy etnik xaritani shakllantirishda etnotoponimlar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. 13 № 1 (1) 2024

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Кораев С. Этнография. Т.: 1979.
2. Материалы по истории киргизов и киргизии. Вип. I. M., 1973.
3. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Т., 2001 й.
4. Материалы по истории киргизов и киргизии. Вип. I. M., 1973.
5. Хаников Н. Описание Бухарского ханства. СПб, 1843.
6. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари.. Т., 2001 й.
7. Ситняковский Н.Ф. Заметки о Бухарской част долины Зарафшана. //ИТОРГО Т.1. 1899.Вып 2. 1900.

8. Губаева С.С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX – начало XX в. Ташкент., 1983.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº S/5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).